# “Immunologiya – sohalararo muammolar” mavzusidagi xalqaro anjuman yakunlandi

2018 yil 24-25-sentabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Immunologiya – sohalararo muammolar” mavzusidagi xalqaro anjuman 26-sentabr kuni Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida ham davom etdi. Unda Buxoro davlat Tibbiyot instituti o'qituvchilari va talabalari ishtirok etishdi.

Anjuman fundamental va amaliy immunologiya dolzarb masalalariga, xususan, turli immunopatologik sharoitlarni o‘rganishning zamonaviy tendensiyalarini muhokama qilishga bag‘ishlandi.

Bu xalqaro anjumanni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda va dunyoda katta ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni keltirib chiqaradigan allergik kasalliklar diagnostikasi va davolash masalalarini muhokama qilishga qaratilgan.

Anjuman doirasida mamlakatimizning ushbu yo‘nalishdagi xalqaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator bitimlar imzolandi.